

HALOLLIK



O'qituvchi bilan o'rganing

Gul o'stirolmagan bola (Koreys xalq ertagi)

Bir mamlakatning dono qiroli bor ekan. U har tomonlama baxtli bo'lsa-da, biroq merosxo'ri yo'q edi. Kunlarning birida qirol shunday deb o'ylabdi: "O'z mamlakatimda eng samimiy, rostgo'y bolani tanlasam va uni merosxo'r qilib tayyorlasam qanday bo'larkan?"

U mamlakatdagi barcha bolalarga gul urug'i tarqatishni buyurib, shunday deb farmon beribdi: "Kim bu urug'lardan chiroyli gullar o'stira olsa, u mening merosxo'rim bo'ladi".

Hamma bolalar gul o'stira boshlabdilar.

Bolakay Suir ham juda qattiq harakat qilibdi. Ma'lum vaqt o'tsa-da, gultuvakda hech qanday gul unib chiqmabdi.

"Bu qanday g'alati holat?" – hayron bo'libdi Suir.

Nihoyat, bolalar o'z natijalarini ko'rsatish vaqti kelibdi.

Hamma ajoyib gullarni olib kelibdi va faqat Suir bo'sh tuvakni ushlab yig'lab turardi. Shunda qirol uning oldiga kelib so'rabdi:

– Nima uchun bo'sh tuvak bilan turibsan?

Suir urug'larni qanday ekanini, ularni qanchalik parvarishlasa ham urug'lar unib chiqmaganini so'zlab beribdi.

Qirol Suirning qo'lidani ushlab shunday debdi:

– Bu – mening merosxo'rim! Bolalarga tarqatilgan urug'lar qaynatilgan, ular unib chiqishi mumkin emas edi.





Savollarga javob bering

1. Nima uchun bolalar qirolni aldamoqchi bo'lishdi?
2. Haqiqatni aytish yolg'on gapirishdan ko'ra osonmi?



Xalq o'gitalari

- Yolg'onchi chin deyolmas,
Chin desa ham, el inonmas.
- Rost gap aytgan yengilmas.
- To'g'ri so'z toshni yorar,
Egri so'z — boshni.
- Bir yolg'ondan qirq yolg'on.



Guruhlarda ishlash

3	8	2	1	4	9	6	5	7	11	10
g'	z	o'	t	r	l	s	i	o'	k	i

6	2	9	8	1	3	7	4	10	5
i	a	i	l	s	m	y	i	k	m



Yozma topshiriq

Halollikka ma'no jihatidan yaqin va qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni belgilang.

- ☐ **Haqiqat**
- ☐ **Yolg'on**
- ☐ **Samimiy**
- ☐ **Rostgo'y**
- ☐ **Ochiqko'ngil**
- ☐ **Adolat**
- ☐ **Aldoqchi**
- ☐ **Qo'rqqoq**



Uy vazifasi

Yolg'onchilik va rostgo'ylik haqida maqol topib yozing.



Og'zaki topshiriq

Do'stingiz uy vazifasini bajarmagani uchun ikki baho oldi. Buni yaqinlaridan xafa bo'lishmasin deb yashirmoqchi. Bu vaziyatda siz do'stingizga qanday maslahat berasiz?



Yodda tuting

Halollik nafaqat so'zda, balki amalda ham rostgo'y bo'lishni anglatadi.



Vaziyatni o'rganing

Aka ukasining xonasiga qarab:

– Jasur, darsingni qilib bo'ldingmi? – deb so'radi.

– Ha, – deb javob berdi bola o'ynab o'tirgan holda.

– Zo'r! Demak, senga yordam kerak emas. Men o'rtoqlarim bilan futbol o'ynashga ketdim.

“Eh, nima qilib qo'ydim, – dedi Jasur stoldagi daftarlariga qarab. – Akam menga yordam berar edi”. U xo'rsinib, telefonini bir chekkaga qo'ydi va bir o'zi dars tayyorlashga kirishdi.



Savollarga javob bering

1. Akasi nega Jasurdan uy vazifasi haqida so'radi?
2. Yolg'onchilik qanday oqibatga olib keldi?
3. To'g'riso'zlik Jasurga qanday yordam berar edi?



Bo'yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo'ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo'ldimi?



Uy vazifasi

Gapni to'ldiring.

1. To'g'ri so'zlashga yordam beradi.
2. To'g'riso'z bo'lishimiz kerak, chunki.....
3. To'g'riso'z inson doimo.....